



O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI FRAZEOLOGIZMLARINING LEKSIK-SEMANTIK MUNOSABATLARI.

Andijon davlat chet tillari instituti

p.f.f.d. PhD Isomiddinov Asliddin

Andijon davlat chet tillari instituti

Voxobjonova Mavluda Obobakirovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada frazeologik birliklarning leksik-semantik munosabatlari kontrastiv yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tanlangan adabiy asardagi frazeologizmlar ingliz tilidagi muqobillari bilan solishtirilib, ularning semantik xususiyatlari, milliy o'ziga xoslikni ifodalashdagi roli va tarjima jarayonidagi qiyinchiliklar yoritiladi.

Kalit so'zlar: Frazeologizm, leksik-semantik munosabatlar, tarjima, kontrastiv tahlil, madaniy kontekst, semantik xususiyatlar.

Аннотация: В статье проводится контрастивный анализ лексико-семантических отношений фразеологических единиц. Фразеологизмы, выявленные в выбранном литературном произведении, сопоставляются с английскими эквивалентами, раскрываются их семантические особенности, культурная специфика и трудности перевода.

Ключевые слова: Фразеологизмы, лексико-семантические отношения, перевод, контрастивный анализ, культурный контекст, семантические особенности.

Annotation: This article examines the lexical and semantic relationships of phraseological units using a contrastive approach. The phraseological expressions from the selected literary work are compared with their English equivalents, highlighting their semantic features, cultural specificity, and translation difficulties.

Keywords: Phraseological units, lexical-semantic relations, translation, contrastive analysis, cultural context, semantic features.



“Frazeologiya” atamasi yunoncha “frama” (phrasis ifoda, nutq o‘rami) so‘zidan olingan bo‘lsada, bu atama turlicha ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Shu sababdan frazeologiya atamasi tilshunoslikda ikki ma’noda qo‘llaniladi: tildagi mavjud frazeologik birliklarning jami ma’nosida, hamda shunday birlilarni o‘rganuvchi soha ma’nosida. Demak, frazeologiya iboralar haqidagi ilm demakdir. Tilshunoslikning boshqa sohalari singari frazeologiya ham o‘zining shakllanish va taraqqiyot bosqichlariga ega. Frazeologizmlar kelib chiqishi jihatdan juda qadimiy bo‘lsa-da, frazeologiya fani qariyb ikki yuz yilni o‘z ichiga oladi. Frazeologiya tilshunoslikning eng qiziqarli va murakkab bo‘limlaridan biridir. Chunki frazeologizmlar xalqning dunyoqarashi, madaniyati, milliy mentaliteti va tarixiy tajribasini o‘zida mujassam etadi. Har bir xalqning bunday iboralar ularning turmush tarzi, urf-odatlar, diniy qarashlari va ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularni tarjima qilish jarayonida ko‘plab qiyinchiliklarni tug‘diradi. Frazeologiya ilmining asoschisi shveysariyalik olim Sharl Ballidir. U 1909-yilda “Frantsuz stilistikasi” asarida frazeologik birliklarni o‘rganishga alohida bob ajratgan. Keyinchalik V.V.Vinogradov frazeologizmlarni ilmiy jihatdan tasniflab, ularni alohida bo‘lim sifatida tilshunoslikka olib kirdi. O‘zbek tilshunosligida esa S. Rahmatullayev, G‘.A.Bayramov, G‘.X.Axunzyakov va boshqa olimlar bu yo‘nalishda qator tadqiqotlar olib borishgan.

V.V. Vinogradov tasnifiga ko‘ra frazeologizmlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

1 .Frazeologik chatishmalar (phraseological fusions) – ma’nosi butunlay o‘zgargan, tarkibiy qismlarining ma’nosini ajratib bo‘lmaydigan birliklar. Masalan: to kick the bucket – “o‘lish”.

2. Frazeologik qo‘shilmalar (phraseological unities) – umumiy ma’no butunlay yangicha bo‘lsa-da, tarkibiy qismlarning obrazlilik sezilib turadi. Masalan: to lose one’s head – “es-hushini yo‘qotmoq”.



3. Frazeologik birlashmalar (phraseological collocations) – erkin soʻz birikmalariga yaqin boʻlib, ayrim soʻzlar faqat maʼlum soʻzlar bilan birikadi. Masalan: heavy rain, strong tea.

Oʻzbek tilida ham xuddi shunday boʻlinishlar mavjud boʻlib, ular xalq ogʻzaki ijodidan, urf-odatlardan, diniy qarashlardan hamda milliy tafakkurdan oziqlanadi. Frazeologizmlar tarjimada katta muammo tugʻdiradi. Chunki har doim ham boshqa tilda toʻliq ekvivalent topilmaydi. Tarjima qilishning asosiy usullari quyidagilardan iborat:

Toʻliq ekvivalent: oʻzbek tilidagi “koʻngli togʻdek” ingliz tilida to be over the moon.

Qisman ekvivalent: oʻzbekcha “ogʻzi qulogʻida” inglizchada to grin from ear to ear.

Izohli tarjima: ekvivalenti yoʻq boʻlsa, maʼnosini izohlab tarjima qilish lozim.

“Tarnov” hikoyasidan olingan frazeologizmlar tahlili. Mazkur maqolada Abdulla Qahhorning “Tarnov” hikoyasi misolida oʻzbek tilidagi frazeologizmlar ingliz tiliga qiyosiy tahlil qilindi. Quyida baʼzi frazeologizmlar keltiriladi: Oʻzbekcha frazeologizm Inglizcha ekvivalenti Soʻzma-soʻz tarjimasi Izoh madaniy tafovut;

Avzoyi buzuq—The weather is bad—The mood is ruined—Inglizchada faqat ob-havo haqida qoʻllanadi, oʻzbekchada esa odam kayfiyatiga ham nisbatan ishlatiladi

Tinkam quridi—I’m exhausted—My “tinka” is dried

Oʻzbekchada “tinka” obrazli soʻz, inglizchada bevosita ekvivalenti yoʻq

Tom labi—Eaves—Roof edge—Soʻzma-soʻz tarjima, lekin inglizchada obrazlilik yoʻq

Xunobim oshdi—I was fuming / I lost my temper—My bile rose

Madaniy jihatdan farqli, inglizchada asosan “anger” orqali ifodalanadi



Qor yog‘di—It’s snowing heavily—Snow fell Oddiy ko‘rinishda, lekin o‘zbek tilida obrazli ishlatiladi

Ko‘ngli ko‘tarildi—To cheer up His heart lifted—O‘xshash ma’no, lekin obrazlilik turlicha

Kapalagim uchdi—My heart skipped a beat—My butterfly flew Inglizchada ham hissiyot ifodalanadi, lekin obraz boshqacha

Ko‘z yumdi—To pass away—Closed eyes—Madaniy jihatdan mos, yumshoq tarzda ishlatiladi

Boshi osmonga yetdi—He was overjoyed / on cloud nine—His head reached the sky—Har ikki tilda obrazli, ammo frazeologizmlar boshqa obraz asosida qurilgan

Burnim ko‘tarildi—I got arrogant / stuck up—My nose lifted—Inglizchada ham burun obrazli ishlatiladi (to turn up one’s nose)

Frazeologizmlar xalqning dunyoqarashi va mentalitetini yaqqol ko‘rsatadi. Masalan, o‘zbek tilida “tinka” yoki “xunob” kabi tushunchalar mavjud bo‘lsa, ingliz tilida ularning to‘liq ekvivalenti topilmaydi. Ingliz tilida esa diniy va tarixiy manbalarga asoslangan iboralar ko‘p uchraydi (by the skin of one’s teeth, the writing on the wall). Shu sababli tarjimon nafaqat lingvistik, balki madaniy bilimga ham ega bo‘lishi zarur. Frazeologizmlar nafaqat tilning badiiy boyligini, balki xalqning milliy o‘ziga xosligini ham ifodalaydi. Ularni tarjima qilish jarayonida ekvivalent topish, semantik qatlamni to‘g‘ri ochish, madaniy tafovutlarni hisobga olish muhimdir. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologizmlarning qiyosiy tahlili orqali tarjimashunoslikda kontrastiv yondashuvning zarurligi yana bir bor asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi. – T.: 1997.
2. Narimonova Z. Frazeologik iboralarning tarjimasi haqida. – T.: O‘zMU to‘plami, 2007.
3. Abdulla Qahhor. Tarnov hikoyasi.



4. Kunin A.V. Kurs frazeologii sovremennogo angliyskogo yazyka. – Moskva, 1996.
5. Vinogradov V.V. Osnovnye tipy frazeologicheskix yedinit russkogo yazyka. – Moskva, 1947.
6. Rahmatullayev S. O‘zbek tili frazeologiyasi masalalari. – T.: Fan, 1978.
7. Cambridge Dictionary – <https://dictionary.cambridge.org>
8. Oxford Learner’s Dictionaries – <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com>
9. Cowie A.P. English Phraseology: A Coursebook. – Oxford University Press, 2001.
10. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – Routledge, 2018.